

YAPON TILIDAGI FE'LLI FRAZEOLGIZMLARNING TARKIBIY-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI

Yuta Ujie.

(O'zDJTU).

Juramurodov D.

(SamDChTI).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18288120>

Yapon tilidagi fe'lli frazeologizmlar (動詞慣用句) zamonaviy yapon tilining muhim leksik-semantik qatlamlaridan biri bo'lib, ular shakllanishi, grammatik tuzilishi va ma'no barqarorligi jihatidan alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Ushbu birliklarning katta qismi "ot + fe'l" modeliga asoslangan bo'lib, statistik jihatdan eng faol guruhni tashkil etadi. Bunday frazeologizmlar ichida ayniqsa「ヲ格」[o kaku] "o" kelishik ko'rsatkichi orqali bog'langan birliklar yetakchi o'rinni egallaydi. Masalan, 「あいづちを打つ」[aizuchi o utsu] (tasdiqlab turmoq), 「足を洗う」[ashi o arau] (Yomon yo'ldan qaytmoq) kabi frazeologizmlarni keltirishimiz mumkin¹. Bu holat yapon tilida harakatning obyektga yo'naltirilganligi frazeologik birliklar shakllanishida muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek,「二格」[ni kaku] "ni" kelishik ko'rsatkichi va 「ガ格」[ga kaku] "ga" kelishik ko'rsatkichi asosida tuzilgan fe'lli frazeologizmlar ham salmoqli ulushni tashkil etadi:「気に入る」[kini iru] (yoqtirmoq), 「顔がきく」[kaoga kiku] (tanish bilishi ko'p) va boshqalar². Biroq boshqa kelishiklar asosidagi birliklar nisbatan kam bo'lib, bu fe'lli frazeologizmlarning tarkibiy jihatdan cheklangan va barqaror ekanidan dalolat beradi. O'zbek tilida ham fe'lli frazeologizmlarda ot + fe'l modeli ustuvor bo'lsa-da, kelishiklar orqali qat'iy cheklanish yapon tilidagidek kuchli emas.

Yapon tilidagi fe'lli frazeologizmlarning shakllanishida muhim bosqichlardan biri「連語形式」[rengo keishiki] hisoblanadi. Bu tushuncha dastlab erkin yoki yarim erkin so'z birikmalarini anglatadi. Bunday birliklarda dastlab har bir komponentning lug'aviy ma'nosi saqlanadi, biroq vaqt o'tishi bilan birikma semantik jihatdan zichlashib, komponentlarning individual ma'nosi xiralashadi va natijada yangi, yaxlit frazeologik ma'no yuzaga keladi. Masalan, 「あごで使う」[ago de tsukau] (o'zi hech qanday ish qilmay turib, kibrli va buyruqboz munosabatda boshqalarni ishlatish) yoki 「鎚を削る」[shinogi o kezuru] (keskin va shiddatli raqobat olib borish) kabi birliklarda alohida so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib umumiy mazmunni anglash qiyinlashadi. Bu holat ularning to'liq frazeologiyalashganligini ko'rsatadi³.

Yapon fe'lli frazeologizmlarining muhim xususiyatlaridan biri — ularning ma'lum grammatik shakllarga bog'lanib qolishidir.

¹ 宮地裕 (1982) 『慣用句の意味と用法』 明治書院, pp. 242.

² 故事・ことわざ・慣用句辞典オンライン

³ 日本文法辞典 有精堂出版株式会社、1988 東京。鈴木丹士郎 473

Jumladan, ayrim birliklar asosan inkor shaklda qo'llanadi. Masalan, 「らちがあかない」 [*rachiga akanai*] (chorasiz qolmoq), 「うだつがあがらない」 [*udatsuga agaranai*] (rivojlana olmaslik) kabilarni keltirishimiz mumkin. Bunday iboralar ijobiy shaklda deyarli ishlatilmaydi yoki juda kam uchraydi va hatto ijobiy shaklda qo'llanganda ham inkor shakl semantik jihatdan asos bo'lib qoladi. O'zbek tilida esa fe'lli frazeologizmlarning bunday qat'iy inkoriy cheklovga ega bo'lishi kamroq kuzatiladi.

Aksincha, yapon tilida ayrim fe'lli frazeologizmlar inkor shaklni qabul qilmaydi yoki cheklangan holda qabul qiladi. Masalan, 「頭にくる」 [*atamani kuru*] (jahli chiqmoq) iborasi mustaqil gap sifatida inkor shaklda deyarli ishlatilmaydi, balki inkor mazmuni murakkab sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. Bu holat yapon fe'lli frazeologizmlarining yuqori darajadagi formal barqarorligini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa “jahli chiqmaslik”, “asabiga tegmaslik” kabi shakllar grammatik jihatdan nisbatan erkin.

Fe'ning o'zlik–o'timlilik xususiyatiga ko'ra ham yapon tilidagi fe'lli frazeologizmlar o'ziga xosdir. Ba'zi birliklar o'timli va o'timsiz shaklda juft holda uchraydi, biroq umumiy miqyosda faqat bitta shaklda mustahkamlangan frazeologizmlar ustunlik qiladi. Bunga misol tariqasida 「腰を抜かす／腰が抜ける」 [*koshi o nukasu/ koshi ga nukeru*] (“hayratdan qotib qolmoq” / “hayratdan oyoqlari titrab qolmoq”) iborasini keltirish mumkin. Bu holat ham ularning yuqori darajada qotib qolganligini tasdiqlaydi.

Yapon tilida uch va undan ortiq bo'lakdan tashkil topgan fe'lli frazeologizmlar ham keng tarqalgan: 「顔から火が出る」 [*kaokara higa deru*] (yuzi qizarmoq), 「手に汗をにぎる」 [*teni ase o nigiru*] (qattiq hayajondan tang holatga kelmoq). Bunday birliklarda, ayniqsa, 「連体格」 [*rentaikei*] (qaratuvchi shakl) muhim semantik komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, yapon tilida fe'l ishtirok etgan, ammo klassik kelishik munosabatlari doirasidan tashqarida shakllangan keng ma'nodagi fe'lli frazeologizmlar ham mavjud. Ular predikativ, ravishli yoki aniqllovchi vazifada kelib, qo'llanish jihatidan nihoyatda barqaror hisoblanadi. Miqdor jihatdan kam bo'lsa-da, bunday birliklar frazeologik tizimda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, yapon tilidagi fe'lli frazeologizmlar 「連語形式」 [*rengo keishiki*] dan to'liq frazeologiyalashuvga o'tish, semantik zichlashuv, grammatik shaklning cheklanishi va yuqori darajadagi barqarorlik bilan xarakterlanadi. O'zbek tilidagi fe'lli frazeologizmlar bilan qiyoslanganda, yapon tilida formal va strukturaviy qat'iylik kuchliroq, o'zbek tilida esa semantik moslashuvchanlik ustuvor ekanligi aniqlanadi. Ushbu farqlar ikki tilning tipologik xususiyatlari va madaniy-tarixiy rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 宮地裕 (1982) 『慣用句の意味と用法』明治書院, pp. 242.
2. 故事・ことわざ・慣用句辞典オンライン

3. 日本文法辞典 有精堂出版株式会社、1988 東京。鈴木丹士郎 473
4. Achilova O. Hurmat kategoriyasining muloqot samaradorligini ta'minlovchi omil sifatidagi mohiyati // Сўз санъати. 2024. № 4. – Б. 108-112 (10.00.00; №31).
5. Achilova O. Taqiq mazmunning dialogik nutqda faollashuvini ta'minlovchi omillar // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2024/22. – Б. 147-149 (10.00.00; №9).